



Applying Spanish language tourism experience to Uzbekistan's tourism sector

Utkir BURKHONOV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
15 March 2025
Accepted 25 April 2025
Available online
15 May 2025

Keywords:

language tourism,
Spanish language,
Uzbek language,
cultural tourism,
cervantes institute,
DELE and SIELE
certifications,
CEFR standards,
Integration of travel and
language learning.

ABSTRACT

Today, language tourism is one of the most productive areas of tourism in developed countries, including Spain. The development of this sector in tourism is assessed by having a well-thought-out program in all respects. Such destinations do not have a strong place in Uzbek tourism. Of course, this is directly related to the position of the Uzbek language among the world's languages. The economic potential of language tourism is reflected in the number of summer courses organized by some countries. The purpose of this article is to study the achievements of Spanish language tourism, its adaptation to the conditions of Uzbekistan and its development.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3-pp170-176>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ispaniya til turizmi tajribasini O'zbekiston turizm sohasiga yo'naltirish

Kalit so'zlar:

til turizmi,
ispan tili,
o'zbek tili,
madaniy turizm,
servantes instituti,
DELE va SIELE tizimlari,
CEFR talablari,
sayyohlik va til o'rganish
integratsiyasi.

ANNOTATSIYA

Til turizmi bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar, jumladan Ispaniya turizmning sarmahsul yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turizmda bu sohani rivojlantirish har tomonlama puxta o'ylangan dasturga egalik qilish bilan baholanadi. O'zbekiston turizmida bu kabi yo'nalishlar o'zining mustahkam o'rniga ega emas. Albatta, bu o'zbek tilining dunyo tillari o'rtasidagi mavqeyi bilan, bevosita bog'liqdir. Til turizmining iqtisodiy potentsiali esa ba'zi mamlakatlar tomonidan tashkil etilgan yozgi kurslar sonida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolaning maqsadi – Ispaniya til turizmi yo'nalishidagi yutuqlarini o'rgangan holda uni O'zbekiston sharoitiga moslash va uni rivojlantirish.

¹ PhD, Associate Professor, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: utkirburkhon24@gmail.com

Использование опыта языкового туризма Испании в развитии туристической отрасли Узбекистана

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

языковой туризм,
Испанский язык,
Узбекский язык,
культурный туризм,
институт сервантеса,
Сертификация DELE и
SIELE,
Стандарты CEFR,
интеграция туризма и
изучения языка.

Сегодня языковой туризм является одним из наиболее продуктивных направлений туризма в развитых странах, включая Испанию. Развитие этого сектора туризма оценивается наличием всесторонне продуманной программы. В Узбекистане подобные направления пока не занимают значимого места в туристической отрасли. Конечно, это напрямую связано с положением узбекского языка среди мировых языков. Экономический потенциал языкового туризма отражается в количестве летних курсов, организуемых рядом стран. Цель данной статьи – изучить достижения языкового туризма в Испании, а также рассмотреть возможности его адаптации и развития в условиях Узбекистана.

Bugungi kunda til turizmi degan tushunchadan turizm orqali o'z tili va madaniyatini targ'ib qiluvchi mamlakatlarda, xususan Ispaniya turizmida keng foydalanilmoqda. Til turizmining obyekti – bu tildir. Ona tili sifatida ispan tili dunyoda xitoy tilidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shuningdek, ispan tili dunyoda eng keng tarqalgan tillar orasida ham ikkinchi o'rinda turadi.

Ispaniya Servantes institutining “El español en el mundo” (“Dunyoda ispan tili”) yillik to'plami 1998-yildan beri muntazam ravishda chop etib kelinadi. Ushbu yillik to'plam ispan tilining global ahvoli va tarqalishini o'rganuvchi asosiy manba hisoblanadi. Nashrda dunyodagi ispan tilining demografiyasi, ilmiy-tahliliy maqolalar va Servantes institutining eng muhim xalqaro loyihalari haqida ma'lumotlar jamlangan. Mazkur to'plamning 2024-yildagi 25-sonli nashrida Fransisko Moreno Fernandez va Gektor Alvarez Mellaning muallifligidagi “Dunyoda ispan tili 2024” nomli hisobot maqolasi nashr etilgan bo'lib, ular dunyo bo'ylab ispan tilida so'zlashuvchilar soni ortib borayotganini raqamlar orqali yoritib berganlar. Bugungi kunda ispan tilida so'zlashuvchilar soni 600 milliondan oshgani, ulardan deyarli 500 millioni ona tili sifatida so'zlashuvchi ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, 100 milliondan ziyod insonlar ispan tilida gaplashuvchi mamlakatlardan tashqarida yashaydi. Ispan tilini xorijiy til sifatida o'rganayotganlar esa 24 milliondan ortiqni tashkil etadi va bu ko'rsatkich har yili o'rtacha 2% ga oshib bormoqda. Ushbu raqamlar tilning xalqaro maydonda hali katta rivojlanish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Ispan tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish global miqyosda sayohat va ta'lim yo'nalishida yangi tendensiyani – til turizmini shakllantirdi. Til turizmi – xorijga borib, o'sha hududning tilini o'rganish jarayoniga asoslangan maxsus sayyohlik turi bo'lib, uning bosh maqsadi til o'rganishni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirishdir.

Ispan tilining keng tarqalgan demografik ahamiyati bilan bir qatorda, Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlarining boy madaniy merosi ham ispan tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning asosiy sabablaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Lotin Amerikasi va Ispaniya madaniyati o'zining san'ati, adabiyoti, musiqasi va festivallari bilan global e'tiborni tortadi. Ushbu madaniy jihatlar ko'pincha til o'rganish jarayonini boyituvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til o'rganishni sayohat bilan birlashtirgan talabalar lingvistik va madaniy kompetentsiyalarni tezroq egallaydilar. Shu sababli, ispan tiliga asoslangan til turizmi nafaqat lingvistik maqsadlarga, balki madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Til turizmi bo'yicha dunyo miqyosida kam tadqiqotlar olib borilmoqda O'zbekistonda esa bu borada ilmiy tadqiqotlar ham kam uchraydi. Shuning uchun ham tashkilotlarda (til maktablari, sayyohlik agentliklari, mahalliy tashkilotlar va boshqalar) va ilmiy sohalarda ham ushbu masalani ko'rib chiqilishi kerak. Albatta, til turizmini rivojlantirishdan oldin, tilni rivojlantirish, unga erkinlik berish va uni dunya hamjamiyati tomonidan qiziqish uyg'otish zarurdir. Yuqorida keltirgan ma'lumotlarimiz orqali ispan tilining dunyo aholisi tomonidan juda katta qiziqish borligini va buning natijasida til turizmini rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda turizmning bu yo'nalishini rivojlantirishdan oldin, o'zbek tiliga e'tibor qaratish, unga keng imkoniyatlar yaratish va betakror madaniyatimiz orqali sayyohlarga tilimizga bo'lgan qiziqishni ortirish maqsadga muvofiqdir. So'ngi yillarda o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham ortgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida" 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbek tili va adabiyotini, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash asosiy maqsadlardan biri qilib ko'rsatilgan va bu albatta, o'zbek tilini biladigan va uni o'qita oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash borasida eng ishonchli qadamlardan biri bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni o'zbek tilining moddiy-texnik bazasini yaratish borasida eng ahamiyatli hujjatdir. Ushbu Farmonda davlat rahbari: "O'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, mamlakatimizda yashayotgan turli millatlarga mansub vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishlari uchun tegishli sharoit yaratib berish, yurtimizda va xorijda o'zbek tilini o'rgatadigan o'quv markazlarini ko'paytirish zarur" – degan fikrlari til turizmini tashkil etish va uni rivojlantirish borasida ahamiyatlidir.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-fevraldagi qarori bilan "Rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi. Ushbu qaror davlat tilining nufuzini oshirish va rasmiy ish yuritishda o'zbek tilidan keng foydalanishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Mazkur nizomning asosiy jihatlaridan biri bur sertifikatlash tizimining joriy etilishida bo'lib, unga ko'ra 2021-yil 1-apreldan boshlab rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga nomzodlarning davlat tilini bilish darajasi baholanadi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganlarga davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikati beriladi. Shuningdek test sinovlarini tashkil etish Davlat test markazi tomonidan tashkil etilib, nomzodlarning o'zbek tilida rasmiy ish yuritish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan. Test sinovlari tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini baholashni o'z ichiga oladi. Rahbar lavozimlariga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish darajasini aniqlash majburiy hisoblanadi. Bu talab davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi. Qaror ijrosi doirasida

davlat tilini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish jarayonlari yo'lga qo'yilgan. Bu esa davlat tilida ish yuritish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu qaror davlat tilining rasmiy doiralarda keng qo'llanilishini ta'minlash va rahbar kadrlarning o'zbek tilini mukammal bilishini rag'batlantirishga qaratilgan muhim hujjatdir.

Til turizmining yana bir asoslaridan biri bu mavjud tilda jahon standartlariga mos bo'lgan, CEFR talablariga javob bera oladigan til o'rganish normalarining mavjudligi. Ispan tilida bunday mezonlarga javob beruvchi (Chet tili sifatida ispan tili diplomi) DELE til bilish darajasini aniqlab beruvchi xalqaro tan olingan diplom mavjud bo'lib, u 1988-yildan buyun Ispaniya Qirolligi ta'lim, madaniyat va sport vazirligi nomidan Servantes instituti va hamkor tashkilotlar Ispaniyaning Salamanka universiteti, Meksika milliy avtanom universiteti va Buenos Ayres universitetlari tomonidan belgilangan imtihondan o'tgan talabgorlarga beriladi. Ispaniyaga til o'rganish maqsadida tashrif buyuruvchi sayohatchilar, rasmiy daraja sertifikati olish uchun, odatda DELE (Diploma de Español como Lengua Extranjera) imtihonini topshirishlari zarur bo'ladi. DELE imtihoni ispan tilini xorijiy til sifatida bilish darajasini tasdiqlovchi eng nufuzli hujjat hisoblanadi va u dunyo bo'ylab keng tan olingan.

Bundan tashqari, Servantes instituti hamkor universitetlar bilan birgalikda 2016-yilda ta'sis etilgan SIELE (Servicio Internacional de Evaluación de la Lengua Española – Ispan tili xalqaro baholash xizmati) platformasi orqali ispan tilidan onlayn imtihon topshirish imkoniyatini ham taqdim etmoqda. SIELE imtihoni ispan tilini bilish darajasini aniqlashda yanada qulay va zamonaviy yechim bo'lib, u nafaqat til bilish darajasini tasdiqlash, balki xalqaro miqyosda ispan tiliga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tizim imtihonlarni butunlay raqamli shaklda o'tkazib, foydalanuvchilarga tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki nutq ko'nikmalarini baholash imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, SIELE sertifikati DELE ga qaraganda moslashuvchanroq bo'lib, o'z ichiga Yevropa tillari umumiy tavsifi (CEFR) talablari asosida barcha bosqichlarni qamrab oladi. Bu esa ispan tilini o'rganish jarayonida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi va talaba hamda mutaxassislariga til bilish darajasini isbotlashda xalqaro tan olingan vosita bo'lib xizmat qiladi.

DELE va SIELE o'rtasidagi asosiy farqlar

Xususiyat	DELE	SIELE
Boshlangan yili	1988	2016
O'tkazilish shakli	An'anaviy (markazlarda)	To'liq onlayn
Diplom muddati	Cheksiz	5 yil
Baholovchi tizim	Har bir darajani alohida topshirish	Integratsiya (1 test orqali umumiy baho)
O'tkazilish maqsadi	Diplom olish (malaka sertifikati)	Raqamli sertifikat (tezkor natija)
Moslashuvchanlik	Belgilangan sanalar bo'yicha	Har qanday kunda (joy band qilingan holda)

2019-yilda O'zbekistonda o'zbek tilini bilish darajasini aniqlash maqsadida CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) talablariga mos B1 va B2 darajadagi test savollari ishlab chiqildi. Ushbu testlar Bank-moliya akademiyasi, Davlat boshqaruvi akademiyasi tinglovchilari va Davlat test markazi (DTM) xodimlari ishtirokida sinovdan o'tkazilib, natijalari tahlil qilindi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi. Test savollari takomillashtirilgach, 2020-yildan boshlab amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan edi.

Biroq hozirgi kunga kelib, o'zbek tilini bilish darajasini baholash uchun CEFR talablariga to'liq mos milliy imtihon tizimi hali amalda joriy etilmagan. Mavjud CEFR imtihonlari asosan chet tillarini, jumladan ingliz, nemis, fransuz, ispan va boshqa tillarni bilish darajasini aniqlashga qaratilgan. O'zbek tilini bilish darajasini xalqaro standartlarga muvofiq baholovchi sertifikatlash tizimi to'liq yo'lga qo'yilmagan bo'lsa-da, davlat tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy testlar qisman amaliyotda qo'llanilmoqda. 2020-yil 28-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 592-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlangan. Ushbu nizomga muvofiq, fuqarolikka qabul qilish jarayonida davlat tilini bilish darajasi maxsus test sinovlari orqali aniqlanadi. Biroq, bu testlar CEFR talablariga to'liq mos kelmaydi va umumiy sertifikatlash tizimi sifatida ishlamaydi.

Kelgusida o'zbek tilini bilish darajasini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish til o'rganuvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin. Bu esa O'zbekistonga keluvchi chet elliklar, talabalar va sayyohlar uchun til o'rganish dasturlarini kengaytirish, o'zbek tilining xalqaro miqyosda nufuzini oshirish va til turizmini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, o'zbek tilini CEFR talablariga mos baholash tizimini yo'lga qo'yish milliy tilni xalqaro maydonda tanitishda muhim qadam bo'ladi.

Tilni o'rganish sayohat qilish uchun asosiy turtki bo'lsa ham, sayyohlar manzilni tanlashda boshqa xususiyatlarni, masalan, xavfsizlik, tilning sifati yoki madaniy diqqatga sazovor joylarni hisobga olishadi. Bu esa o'z navbatida turizmning boshqa sohalarini kuchaytirishni taqozo etadi. Albatta, O'zbekistonda xavfsizlikni ta'minlash va sayyohlarning madaniy diqqatga sazovor joylarga qulay tashrif buyurishlari uchun sharoit yaratish bo'yicha keng ko'lamli amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi "Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4229-sonli Qarori" hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-sonli Qarori" mamlakatda xavfsiz turizmni ta'minlash borasidagi muhim tashabbuslardan hisoblanadi.

Mazkur qarorlar sayyohlar oqimini oshirish va ularning O'zbekistonga tashrifi davomida o'zlarini xavfsiz his qilishlari uchun barcha zarur infratuzilma va xavfsizlik tizimlarini joriy etish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Shu tariqa, sayyohlik yo'nalishlari va madaniy obyektlarning jozibadorligi oshib, turizm sohasining rivojiga keng imkoniyat yaratildi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish xalqaro tashkilotning ma'lumotlariga ko'ra bugun turizm rivojlanib borayotgan bir vaqtda madaniy turizm eng yirik va eng tez rivojlanayotgan global turizm bozorlaridan biri hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlar o'zlarining moddiy va nomoddiy madaniy boyliklarini tobora rivojlanib borayotgan raqobatbardosh turizm bozorida qiyosiy ustunliklarni taraqqiy ettirish va globallashtirish sharoitida mahalliy o'ziga xoslikni yaratish vositasi sifatida faol rivojlantirmoqdalar. Madaniyat manzilning o'ziga xosligini yaratadi, turizm esa madaniy meros va madaniy ishlab chiqarishni kuchaytiradigan daromadni oshirishi mumkin. Turizm va madaniyat o'rtasidagi bu o'zaro bog'liqlik asosida, boshqalarning madaniyatini his etish uchun sayohat qilish tushunchasi muhim o'rin egallaydi.

Madaniy turizmning ko'lamlari katta. Madaniy iste'mol qilish imkoniyatlari kengayganligi sababli madaniy turizmning xilma-xilligi o'sib bormoqda. Madaniy taklif madaniyat obyektlari, hunarmandchilik, arxitektura namunalari, ijrochilik san'ati, madaniy tadbirlar, ijodiy faoliyat va nomoddiy meroslarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, odamlarning turmush tarzi, kundalik madaniyati va urf-odatlar bilan tanishish ham madaniy turizmga misol bo'la oladi. Madaniy turizm nafaqat madaniy qadriyatlarni asrab-avaylashga, balki turizm industriyasining iqtisodiy salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda madaniy turizmning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda, chunki u iqtisodiy daromad keltirish bilan birga xalqlar o'rtasidagi madaniy muloqotni kuchaytiradi. Shu bilan birga, turizmning o'ziga xos yo'nalishlaridan biri sifatida til turizmi alohida e'tiborga loyiqdir.,

O'zbekiston turizmining asosini madaniy turizm tashkil etadi. Chunki, O'zbekiston boy tarixiy-madaniy merosga ega bo'lib, jumladan 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalar mavjud. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizning 200 dan ziyod tarixiy yodgorliklari va obidalarini YUNESKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Til turizmi madaniy turizmning bir qismi bo'lib, sayohatchilarning chet tilini o'rganish maqsadida boshqa mamlakatlarga tashrif buyurishini anglatadi. Til turizmi tushunchasi Ispaniyada "Ispaniya Turistik Kengashi (TURESPAÑA)" va "Ispaniyaning Chet Tili sifatida Ispan tili Maktablar Uyushmasi Federatsiyasi (FEDELE)" tomonidan ilgari surilgan. 2008-yildan beri FEDELE TURESPAÑA bilan hamkorlik qilib, Ispaniyaning til turizmi yo'nalishida targ'ib qilish va ispan tilini chet tili sifatida o'rgatish faoliyatini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Bundan tashqari, FEDELE 2009-yilda Ispaniya Sanoat, Savdo va Turizm vazirligiga "Til Turizmi Strategik Rejasini" taqdim etgan. Ushbu reja ispan tilini o'rganish orqali turizmni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, til o'rganish sayohatlarini Ispaniya iqtisodiyotining muhim qismi sifatida ko'rib chiqadi. Shuningdek, ular til o'rganish sayohatlarini odatiy turistik sayohatlardan farqlab, bunday sayohatlarni chet tilini o'rganish va amalda qo'llash uchun bir yildan kam bo'lmagan muddatga mo'ljallangan turistik faoliyat sifatida tavsiflaydilar. Biroq, til o'rganish dasturining mazmuni va sayohatchining til bilish darajasiga qarab, bu muddat bir yildan qisqa bo'lishi ham mumkin. Masalan, qisqa muddatli intensiv kurslar yoki yozgi maktablar orqali til o'rganish dasturlari bir necha haftadan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Ispaniyada til turizmi mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shadi. Mamlakatning boy madaniy merosi, sifatli ta'lim muassasalari va qulay iqlimi chet ellik talabalarni jalb qiladi. Bu esa nafaqat ta'lim sohasini, balki turizm, xizmat ko'rsatish va boshqa iqtisodiy tarmoqlarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, til turizmi orqali sayohatchilar mamlakatning madaniy diqqatga sazovor joylari bilan tanishish, mahalliy aholi bilan muloqot qilish va tilni tabiiy muhitda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

O'zbekiston ham o'zining boy madaniy merosi va mehmondo'stligi bilan til turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. O'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet elliklar uchun maxsus dasturlar va kurslar tashkil etish orqali mamlakatga ko'proq sayyohlarni jalb qilish va xalqaro miqyosda o'zbek tilining nufuzini oshirish mumkin. Turizmdagi ushbu yo'nalishning moliyaviy ta'siri boshqa tarmoqlar uchun ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. María Redondo-Carretero, Carmen Camarero-Izquierdo, Ana Gutiérrez-Arranz, Javier Rodríguez-Pinto: "Language tourism destinations: a case study of motivations, perceived value and tourists' expenditure" – Springer Science + Business Media New York 2017.
2. Kholikov, B. A. 1-sho'ba the language of fantasy: linguistic features in mythological and fantasy literature. Ilmiy va professional ta'lim jarayonida muloqot, fan va madaniyatlar integratsiyasi, 17.
3. https://cvc.cervantes.es/lengua/anuario/anuario_24/el_espanol_en_el_mundo_anuario_instituto_cervantes_2024.pdf
4. <https://navoiy-uni.uz>
5. <https://examen.es.cervantes.es>
6. <https://kun.uz>